

yangi yechimlarni joriy etish bank tizimining kelajakdagi raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Umuman olganda, O'zbekiston bank tizimida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish – bu zamon talabi bo'lib, u nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki moliyaviy barqarorlik va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda ham muhim omil hisoblanadi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni — “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2020-yil, №30.*

2. *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. “Bank tizimini raqamlashtirish strategiyasi: 2021–2025-yillar uchun yo'l xaritasi.” — Toshkent, 2021.*

3. *Karimov, B. va Tursunov, S. Raqamli iqtisodiyot asoslari. — Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2022.*

4. *Axmedova, M. “O'zbekiston bank tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari.” — Moliya va iqtisodiyot jurnali, №4, 2023, 45–52-betlar.*

5. *Rasulov, A. “Kiberxavfsizlik va mijoz ma'lumotlarini himoyalashning zamonaviy yondashuvlari.” — Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar jurnali, №2, 2024.*

## **KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASHDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA METODOLOGIYASI TAMOYILLARINI AMALGA OSHIRISH**

***Mavrulov Ravshan Nematjonovich***

*Namangan Davlat texnika universiteti “Iqtisodiyot kafedrasini” dotsenti, PhD*

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlari mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ularning faoliyat samaradorligini ishonchli baholash boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim omil hisoblanadi. Biroq an'anaviy baholash usullari ko'p hollarda faqat moliyaviy ko'rsatkichlarga tayanib, faoliyatning barcha jihatlarini to'liq aks ettira olmaydi. So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda yangi metodologik yondashuvlarni shakllantirmoqda. Sun'iy intellekt asosidagi modellar katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, omillar o'rtasidagi murakkab bog'liqliklarni aniqlash va baholash aniqligini oshirish imkonini beradi. Shu sababli, kichik biznes subyektlari faoliyatini baholashda sun'iy intellekt asosida metodologiya tamoyillarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Kichik biznes subyektlari faoliyatini baholash metodologiyasi nafaqat ko'rsatkichlar majmui, balki aniq ilmiy tamoyillarga tayangan holda shakllangan yondashuvlar tizimidan iboratdir. Mazkur tamoyillar baholash jarayonining

qanday tashkil etilishi, qaysi ma'lumotlar asos qilib olinishi va natijalar qanday talqin etilishini belgilab beradi. Shuning uchun ham kichik biznes subyektlari faoliyatini baholash metodologiyasini ishlab chiqishda, avvalo, uning asosiy tamoyillarini aniqlab olish zarur. Quyida keltirilayotgan jadvalda kichik biznes subyektlari faoliyatini baholash metodologiyasining asosiy tamoyillari, ularning mazmuni hamda amaliy ifodasi tizimli ravishda umumlashtirilgan (1-jadval).

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, kichik biznes subyektlari faoliyatini baholash metodologiyasining asosini, avvalo, komplekslik tamoyili tashkil etadi. Bu tamoyil baholash jarayonida faqat foyda yoki rentabellik kabi tor ko'rsatkichlarga emas, balki korxonaning iqtisodiyot va jamiyatga ta'sirini kengroq qamrab oluvchi indikatorlar majmuiga tayanishni nazarda tutadi. Shu boisdan, samaradorlik baholanishida moliyaviy, ishlab chiqarish, marketing, innovatsion va ijtimoiy ko'rsatkichlar birgalikda qo'llanadi. Tizimlilik tamoyili ko'rsatkichlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ta'minlashga qaratilgan. Ya'ni, moliyaviy natijalar faqat o'zidan-o'zi emas, balki ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi, resurslardan foydalanish samaradorligi, bozor ulushi va boshqa omillar bilan uzviy bog'lanadi.

### 1-jadval

#### Kichik biznes subyektlari faoliyatini baholash metodologiyasining asosiy tamoyillari<sup>213</sup>

Tamoyil nomi	Tamoyilning mazmuni	Amaliy ifodasi
<b>Komplekslik</b>	Faoliyatni iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy jihatlarda baholash	Moliyaviy natijalar bilan birga bandlik va innovatsiyani baholash
<b>Tizimlilik</b>	Ko'rsatkichlar yagona tizimda baholanadi	Ko'rsatkichlarni bloklar bo'yicha guruhlash
<b>Obyektivlik</b>	Ishonchli va rasmiy ma'lumotlarga tayanish	Statistika va buxgalteriya hisobotlaridan foydalanish
<b>Taqqoslanish</b>	Hudud va davrlar bo'yicha solishtirish	Bir xil formulalar asosida tahlil qilish
<b>Dinamiklik</b>	Vaqt bo'yicha o'zgarishlarni baholash	O'sish sur'atlarini aniqlash
<b>Adekvatlik</b>	Ko'rsatkichlar real holatni aks ettirishi	Tarmoq xususiyatiga mos indikatorlar
<b>Amaliy yo'naltirilganlik</b>	Natijalar boshqaruv qarorlariga xizmat qiladi	Strategik rejalashtirishda foydalanish

Shuning uchun ko'rsatkichlar alohida-alohida emas, balki yagona tizim, bloklar va iyerarxik tuzilma doirasida shakllantiriladi. Obyektivlik tamoyili baholash natijalarining ishonchliligini ta'minlash nuqtai nazaridan muhimdir. Bu tamoyil baholashda subyektiv fikr va taxminlardan ko'ra rasmiy statistik ma'lumotlar, buxgalteriya hisobi va mustaqil audit natijalari kabi ishonchli manbalarga tayangan holda ish yuritishni talab qiladi. Shu sababli, baholash metodologiyasida ma'lumotlar manbasi, ularni yig'ish va tekshirish tartibi aniq belgilab qo'yilishi lozim.

<sup>213</sup> Muallif ishlanmasi

Taqqoslanish mumkinligi tamoyili esa kichik biznes subyektlari faoliyatini turli hudud, tarmoq va vaqt kesimida solishtirish imkoniyatini yaratadi. Bu maqsadda nisbiy ko'rsatkichlardan (foizlar, koeffitsiyentlar, ulushlar) foydalanish, formula va uslublarni standartlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Dinamik yondashuv tamoyili baholashda faqat bitta yil yoki davr natijalariga emas, balki bir necha yil davomida shakllangan tendensiyalarga e'tibor qaratishni nazarda tutadi. Bu orqali kichik biznes subyektining barqarorligi, o'sish sur'atlari va uzoq muddatli rivojlanish salohiyati aniqlanadi.

Kichik biznes subyektlari faoliyatini baholashda sun'iy intellekt asosidagi metodologiya an'anaviy yondashuvlarning cheklovlarini bartaraf etib, baholash jarayonining obyektivligi va aniqligini oshiradi. Mazkur yondashuv ko'p omilli tahlil va ishonchli prognozlash imkonini yaratib, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. Xodiyev B. Yu., Qosimova M. S., Samadov A. N. *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik*. – T.: TDIU, 2010.

2. Sharopova N. *O'zbekiston kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish tendensiyalari*. — TDIU ilmiy to'plami, 2025.

3. Neely A., Gregory M., Platts K. (2005). *Performance measurement system design: A literature review and research agenda*. *International Journal of Operations & Production Management*, 25(12), 1228–1263.

4. Kaplan R., Norton D. (1996). *The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action*. Harvard Business School Press.

## **YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI**

***Mirzatov Bahtiyor Tohirovich***

*Namangan davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

Raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt vositalarining keng joriy etilishi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, boshqarish va rivojlantirish jarayonlariga yangi yondashuvlarni shakllantirmoqda. Ayniqsa, yosh tadbirkorlarning innovatsion salohiyati va raqamli texnologiyalarni tez o'zlashtirish qobiliyati sun'iy intellekt asosidagi yechimlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Sun'iy intellekt vositalari biznes-rejalashtirish, bozor kon'yunkturasini tahlil qilish, iste'molchilar xatti-harakatini prognozlash, moliyaviy risklarni baholash va boshqaruv qarorlarini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vositalardan foydalanish yoshlar tadbirkorligida resurslardan oqilona foydalanish, raqobatbardoshlikni oshirish